

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolajeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullajeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullajev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ganieva	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

GLYUTTONIMLAR BILAN IFODALANGAN BOLALARGA OID MUROJAAT BIRLIKLARI

ЕДИНИЦЫ ОБРАЩЕНИЙ К ДЕТЯМ ВЫРАЖЕННЫЕ ГЛЮТОНИМАМИ

REFERENCE UNITS FOR CHILDREN WITH GLUTENOMIES

Giyosova Vasilaxon Avazxon qizi¹¹Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bolalarga nisbatan qo'llanadigan murojaat birliklarining mavzuiy tasnifining glyuttonimlar bilan ifodalanishi o'rganilingan. Bolalarga murojaatlar ba'zan glyuttonimlar bilan ifodalanishi, ba'zi hollarda esa bu birliklar asosiy murojaatlarning tavsiflovchisi sifatida qo'llanishi va bunda atributiv xarakter kasb etishi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье исследуется выражение тематической классификации референтных единиц, используемых для детей с глютонами. Поясняется, что обращения к детям иногда выражаются глютонами, а в ряде случаев эти единицы используются как дескрипторы основных обращений и приобретают атрибутивный характер.

Abstract

In this article, the expression of the thematic classification of reference units used for children with glutonyms is studied. It is explained that references to children are sometimes expressed by glutonyms, and in some cases these units are used as descriptors of the main references and acquire an attributive character.

Kalit so'zlat: glyuttonim, murojaat birliklari, ta'm, sezgi, milliy olam manzarasi, belgi.

Ключевые слова: глютоном, единицы отсчета, вкус, интуиция, национальное мировоззрение, символ.

Key words: glutonym, units of reference, taste, intuition, national world view, symbol.

KIRISH

Ma'lumki, olamni anglash turli sezgi obyektlaridan olingan tasavvurlarimizda uyg'unlashadi. Natijada, ongimizda biz ko'rib turgan olam manzarasi insonga xos bo'lgan kognitiv jarayonning mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Bilish jarayonida sezgi obyektlaridan olingan har bir ma'lumot va taasurotlar bu manzaraning mukammalligi uchun xizmat qiladi. Ta'm bilish sezgisi insonlar uchun voqelikni bilishning, ya'ni "dunyoni bilishning birinchi bosqichi va tarkibiy qismidir"[1].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lum bir millatga tegishli olamning milliy lisoniy manzarasini o'rganishda glyuttonik diskurs muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, tildagi lisoniy olam manzarasini o'rganish orqali ma'lum bir millat xarakterini lingvomadaniy modellashtirish mumkin[2,35].

Ta'm – bilish sezgisining obyekti, biz iste'mol qiladigan, ovqatga ishlatiladigan ozuqa mahsulotlari hisoblanadi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega: *shakar, asal – shirin, qalampir – achchiq*. Shu bilan birga, ularning ta'siri ham har xil: shirin narsalar – yoqimli, achchiq narsalar esa yoqimsiz. Taomga ishlatiladigan tuz me'yor darajasida bo'lsa yoqimli, me'yordan ortiq bo'lsa yoqimsiz. Bu xususiyatlarni aniqlashga ta'm bilish a'zomiz til xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ta'm bilish sezgisiga ta'sir qiluvchi turli obyektlar xususiyatlarining yoqimli, yoqimsizligi muhim ahamiyatga ega: biri ijobiy, biri salbiy baholanadi[3].

Nutqiy muloqot jarayonida adresat va adresant o'rtasidagi o'zaro munosabat ular tomonidan qo'llaniladigan murojaat birliklarida yoqimli yoki yoqimsiz ma'lumot tashuvchisi ekanligi bilan sezilib turadi. Barcha tillarda bolalarga nisbatan qo'llaniladigan murojaat birliklari til tashuvchilarining ta'm bilish sezgisi orqali xotiradagi tasavvur-assotsiatsiyalari bilan uyg'unlashib, bir predmetga xos bo'lgan belgi qayta nomlashga asos bo'ladi.

Bolalarga murojaatlar ba'zan glyuttonimlar bilan ifodalanishi, ba'zi hollarda esa bu birliklar asosiy murojaatlarning tavsiflovchisi sifatida qo'llanishi va bunda atributiv xarakter kasb etishi aniqlandi:

— *O'zimning novvotim, shirin qizalog'im! Orzu qilishdan hech qachon to'xtama. So'ragan o'yinchoqlaringni olib berolmay qorday ko'nglingga ozor bergan bo'lsam, kechir.* <https://soglom.uz/archives/10106>).

Shakar qiz (*Hazil*)
 Dadam meni ertalab,
 Tizzasida erkalab,
 Shakar qizim, dedilar,
 Sharbat qizim, dedilar.
 Uylab qoldim juda ham,
 Hayron qoldilar dadam.
 Shakar qiz ham bo'lmayman,
 Sharbat qiz ham bo'lmayman.
 Agar shakar qiz bo'lsam.
 Shakar deb To'lqin akam,
 Sharbat deb Oygul opam,
 Yeb-ichib qo'ymasinlar,
 Oyimlar kuymasinlar. (E.Raimov. Gullarim – bulbullarim) www.ziyo.uz

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, til bor joyda murojaatlar ham bor. Murojaatlar bor joyda esa pragmatika va bilish bor. Tadqiq qilinaётgan har ikki tilda ham bu kabi semantik-pragmatik xususiyatlarga ega oziq-ovqat nomlari bilan ifodalangan murojaat birliklari unchalik ko'p bo'lmasa-da, faol qo'llanuvchi "сладкая", "конфетка", "асалим", "shakarim", "novvotim" kabi murojaat birliklari so'zlovchining adresatga bo'lgan iliq his-tuyg'ularini, emotsional holatini namoyish etishga xizmat qiladi.

– *Asal qizim! Hattoki suv ichib tashlab yuboradigan yelim idishdan ro'zg'or uchun kerakli uy-ro'zg'or buyumlari yasash mumkin. Tejamkorlik, bolajonim, ayolning bebaho fazilatlaridan biri ekanligi umrbod yodingda bo'lsin!* <https://azon.uz/content/views/qizimga-nomalar-turkumidan>.

– *Хучик! Мой любимый, мой сладкий, мой родной... – Что случилось? (Д. Донцова. Уха из золотой рыбки, 2004).*

– *Конфетка ты моя!.. Зазнобушка!* (В.Вересаев. Два конца, 1998).

Til milliy ong va muloqot tuzilishining tarkibiy qismidir. Bundan tashqari, oziq-ovqat iste'moli kommunikativ faoliyat turlaridan biri sifatida ishlaydi. Glyuttonik nutq bu turdagi muloqotda muhim ahamiyatga ega, chunki milliy xarakter uning doirasida ishlaydi.

Turli tillar va madaniyatlarda glyuttonik diskursni anglash va qulay muloqot sharoitini yaratish uchun shu tillarda faol qo'llaniluvchi glyuttonik murojaat birliklaridan xabardorlik ham talab etiladi. Tadqiq etilayotgan har ikki tilda bolalarga qo'llanadigan murojaat birliklari uchun shirinlik tasvirlariga ustunlik beriladi. Ayniqsa, bu holat oila diskursida yaqqol ko'zga tashlanadi.

XULOSA

Olamdagi barcha narsalar til tashuvchilari lisoniy ongida ma'lum bir tasniflar asosida idrok etiladi. Til birliklari uchun yaratiladigan ko'plab lug'atlar ham ana shu tasniflar natijasida yuzaga keladi.

Bizningcha til birliklari tasnifida aslida so'zlarni emas, balki tushunchalarni tasniflash kerak, deb o'ylaymiz. Bunda tasniflashning yo'naltiruvchi belgisi tushunchalar tizimini uyushgan birlik sifatida tushunish bo'lib, uning bo'linishini esa yagona ketma-ketlikda amalga oshirish talab etiladi. Til birliklarining tasnifi olib borilayotgan tadqiqotlarda so'zlar ifodalayotgan tushunchani yoki ma'noni ifodalash nuqtayi nazaridan turli funksiyalarni namoyon etadi.

Murojaat birliklarining tasnifi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, N.Ahmedovanning tadqiqot ishida murojaat birliklarining joy nomi, millati, bajarayotgan vazifasi, amal-mansabi, kasb-hunari, qarindoshlik munosabati, yoshi, ism-familiyasi, dini bilan bog'liq guruhlari, ularning o'zaro farqli va o'xshash tomonlari, valentlik xususiyati kabi masalalar atroflicha tahlil qilingan[1].

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, rus tilshunosligida ekspressiv murojaat birliklari ikkiga: baholash-xarakterlash va hissiy-xarakterlash kabi turlarga ajratilib, baholash-xarakterlash ekspressiv murojaat birliklari kishilarning axloqiy-intellektual sifatleri va xususiyatlari, jismoniy belgisi, kasbiy mansublik, ijtimoiy mansublik, siyosiy mansublik, hududiy etnik mansubligi va laqabini bildiruvchi kabi turlarga; hissiy-xarakterlash ekspressiv murojaat birliklari esa sof hissiy, jins belgisi, yosh belgisi, muloqotchilarning tanishlik (yaqinlik) darajasi belgisi, qarindoshlik belgisi hamda atoqli otlarni ifodalovchi EMBga ajratib o'rganiladi[2].

A.R.Sayfullayev undalmalarni leksik-semantik xususiyatiga ko'ra ism-familiya, kasb-hunar, mashg'ulot, mansab-amal, unvon, jins, qarindoshlik, holat-xususiyat ma'nolarini ifodalovchi turlarga ajratib o'rganishni taklif qiladi[1,26-34]. O'zbek tilida murojaat shakllarini sotsiolingvistik yo'nalishda o'rgangan tadqiqotchi Z.Akbarova esa murojaat leksikonini tematik jihatdan 18 ta guruhga ajratadi[9].

Bolalarga oid murojaat birliklarini ifodalashda asosan lisoniy vosita sifatida so'zlardan foydalaniladi. Bolalarga oid murojaat birliklarini ifodalovchi so'zlarni turli jihatlariga ko'ra tasnif etish mumkin. Z.Akbarovaning tadqiqot ishida keltirilganidek, murojaat birliklarining tematik asos bo'yicha tasnifi ham mavjud.

ADABIYOTLAT RO'YXATI

1. QOMUS.INFO (<https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sezgi-uz/>) (10.03.2021).
2. Одилова Г. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глуттоник дискурс мисолида). Филол.фан.д-ри (DSc) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – 35 б.
3. Шамсиддинов Ҳ. Турли хотира тасаввурлари ассоциациясининг номлашга муносабати. Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Т., 2006. – Б. 16-20.
4. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. *Science and innovation in the education system*, 2(5), 125-129
5. Авазовна, Г. В. (2022). THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(7), 81-86.
6. Авазовна, Г. В. (2021). Классификация сказок о животных по их структурносемантическому признаку. *Преподавание языка и литературы*, 1(8), 74-77.
7. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. *Science and innovation in the education system*, 2(5), 125-129.
8. GIYOSOVA, V. (2019). Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 124-126.
9. Akbarova, Z. A., & qizi Giyosova, V. A. (2023). Extralinguistic Means Of Expressing Appeal In The Uzbek Language. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 17, 9-13.
10. Гиёсова, В. А. (2022). КОНЦЕПТ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI*, 2(28), 161-166.
11. кизи Гиёсова, В. А. (2022). ТОТЕМИСТИЧЕСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ СКАЗОК О ЖИВОТНЫХ. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(1), 133-139.
12. Giyosova, V. A. (2023, October). FORMATION OF THE DICTIONARY OF PRESCHOOL CHILDREN. In *International Conference on Multidisciplinary Research* (Vol. 1, No. 6, pp. 103-105).
13. Giyosova V. SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF REFERENCE UNITS. Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 2023 Feb 25(1):512-6.